# XORAZM VOHASIDA MUSIQA SAN'ATINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTINING TARIXIY-MADANIY ASOSLARI
# ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА В ХОРЕЗМСКОМ ОАЗИСЕ
# HISTORICAL AND CULTURAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF MUSICAL ART IN THE KHOREZM OASIS

**Babajanov Ulug'bek Salayevich**
*Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi*
*babajanovulugbek56@gmail.com*
*93756 0727*

**Annotatsiya**: *Mil. avv. VI-V ming yilliklarda Amudaryo faoliyati natijasida Xorazm tekisligi yuzasi tuzilishi jihatidan o'ng va so'l sohil xududlariga bo'lingan bo'lib, Qoraqalpog'iston respublikasi, Xorazm viloyati xamda Toshhavuz viloyatlari joylashgan. Maqolada Janubiy Orolbo'yi aholisini mil. avv. IV- milodiy IV asrlarda musiqa san'atining tarixiy ildizi tahlil qilingan.*

**Аннотация:** *В VI-V тысячелетиях до н.э. в результате деятельности Амударьи поверхность Хорезмской равнины структурно разделилась на правобережные и левобережные районы, где сейчас расположены Республика Каракалпакстан, Хорезмская область и Ташхавузский район. В статье описывается население Южного Приаралья в X веке до нашей эры. ср. Анализируются исторические корни музыкального искусства IV–IV вв. н.э.*

**Abstract:** *In the 6th-5th millennia BC, as a result of the activity of the Amu Darya, the Khorezm plain was divided into right and left coastal regions in terms of surface structure, where the Republic of Karakalpakstan, Khorezm region and Tashhavuz regions are located. The article analyzes the historical roots of music art of the population of the South Aral Sea in the 4th-4th centuries BC.*

**Kalit so'zlar**. *Xorazm vohasi, Janubiy Oqchadaryo, Qizilqum, Qoraqum, Sultan Uvays tog'i, Yonboshqala.*

**Ключевые слова:** *Хорезмский оазис, Южная Акчадарья, Кызылкумы, Каракумы, гора Султан Увайс, Ёнбашкала.*

**Keywords:** *Khorezm oasis, South Akchadarya, Kyzylkum, Karakum, Mount Sultan Uvays, Yonbashkala.*

Osiyo materigi geomorfologiyasi o'ziga xosligi bilan bir-biridan farqlanish xolatiga ega bo'lib, bu jarayon yer geologiyasini uchlamchi va to'rtlamchi bosqichlarida kechgan yer osti tebranishlari natijasida tarkib topgan bir necha qismlardan iborat bo'lgan. Shunday geografik qismlardan biri O'rta Osiyo hisoblanadi. Osiyo materigi

markazida geografik kenglikda joylashgan O‘zbekiston xududi yuzasi tog‘lik va tekislik qismlardan iborat. Tekislik shimoli-g‘arbiy, shimoliy, shimoli-sharqiy qismida, tog‘lik esa janubiy va sharqiy xududlardan iborat. Shimoli-g‘arbiy xududida Xorazm vohasi joylashgan. Shimoliy tomonda Orol dengizi, g‘arbida Qoraqum, sharqida Qizilqum, janubida Zauengizi Qoraqum xududiy chegarlarini belgilab bergan. Paleogeografik ma’lumotlarga ko‘ra, 4-3 million yilliklar ilgari Zauengizi Qoraqumi, Ustyurt platosi va Qizilqum-Orol botig‘i oralig‘i tekislik bo‘lgan [1]. Geografiya fani yutuqlaridan ma’lumki, O‘zbekiston joylashish xususiyati jihatidan tabiiy-geografik regionlarga bo‘lingan: Ustyurt platosi, Janubiy Orolbo‘yi, Qizilqum, Quyi Zarafshon vodiysi tekisligidan iborat bo‘lgan [2].

Mil. avv. VI-V ming yilliklarda Amudaryo faoliyati natijasida Xorazm tekisligi yuzasi tuzilishi jihatidan o‘ng va so‘l sohil xududlariga bo‘lingan bo‘lib, Qoraqalpog‘iston respublikasi, Xorazm viloyati xamda Toshhavuz viloyatlari joylashgan. Mazkur xudud to‘rt tomoni ochiqlik xususiyati bilan qo‘shni o‘lkalardan farqlanish holati kuzatiladi. Quyi Amudaryo havzasi “anklav” maqomiga ega. Ya.G‘.G‘ulomov Xorazmning sug‘orilish tizimi tarixiga bag‘ishlangan fundamental asarida Amudaryo o‘ng va so‘l sohili xududlari geografik manzarasini namoyon qilgan turar-joylarda istiqomat qilgan aholi hayot va ijod uyg‘unligiga imkon bergan sug‘orilish inshootlar sohil bo‘ylab axeologik yodgorliklar to‘g‘risida ma’lumotlar ilmiy tadqiqotchilar apjdodlarimiz tarixini o‘rganishda ochqich kalit vazifasini bajargan.[3]. Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari asarlarida Janubiy Orolbo‘yi tabiiy-geografik muhiti, iqlim-antropogen landshafti, Amudaryo va Sirdaryolar faoliyatlari natijalari, o‘lkaning odamzod tomonidan o‘zlashtirilishiga doir tarixiy ma’lumotlar keng o‘rin olgan [4.5.6.7.8].

S.P.Tolstov ilk monografiyasida zikr qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, mil.avv.IV-III ming yilliklarda Sulton Uvays tog‘i janubiy xudud geografik manzarasini tasvir qilgan Yonboshqala balandligi atrofi odamzod tomonidan o‘zlashtirilgan[10]. Amudaryo suv toshqini natijasida Sho‘raxon yaqinidan ajralib chiqqan Oqchadaryo irmog‘i Qizilqum tomon 25km yo‘nalishi jihatidan shimoliy va janubiy qismlarga bo‘linganligi bois, Shuraxon-Sulton Uvays tog‘i janubiy Oqchadaryo, Sulton Uvays tog‘i-Orol dengizi tekisligi Shimoliy Orol dengizi janubiy sohili tekisligi Janubiy va Shimoliy Oqchadaryo havzalariga bo‘lingan. Oqchadaryo irmog‘i suv toshqini natijasida Qizilqum to‘lqinsimon sochma qumtepaliklari oralig‘ida botiqlar suv havzalariga aylangan. Mazkur suv havzalari organik dunyoga, ular sohili etaklari flora va faunaga serob bo‘lgan. Xuddi shu antropogen landshaft, qulay iqlim sharoit va ekologiyasi turli qushlar va hayvonlarning ozuqa mahsulotlaridan foydalanish jarayonida mayin yoqimli ovozlari, jismoniy jixatidan baquvvat jussali baqqiroq hayvonlar o‘ziga xos tovushlari ajdodlarimiz ma’naviyatida musiqa bilimi ilk tarixiy ildizlari vujudga kelishga zamin bo‘lgan, bu jarayon eneolit, bronza, ilk temir davrlarida yanada sayqal

topishi kulolchilik ashyolarda o‘z aksini topgan. Mil.avv.IV asrda Quyqrilganqala qohinlari musiqa san’ati maktabini yaratgan vakillari Tuproqqala saroyida musiqachi ayollar arfa, ud musiqa asboblardan sehrli tovushlar orqali aholiga ma’naviy rux bergan. Qo‘yqrilganqala musiqa maktabi yanada sayqallashish jarayoni Tupraqqala musiqachilar ijrolarida o‘z ma’nosini topgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1.Виноградов А.В. Итина М.А, Кесь А.С, Мамедов Э.Д. Палеогеографическая обусловленность расселения древнего человека в пустынях Средней Азии //Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене-М.:Наука, 1974-С. 290-291.

2.Баратов П. Ўзбекистоннинг табиий географияси-Тошкент,:Ўқитувчи, 1996-Б. 150-170.

3.Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи-Тошкент.:Фан, 1959-308 б.

4.Кесь А.С. Причины изменения уровня Арала в голоцене //Известия АН СССР. Селия географических наук-М.:Наука 1978. № 1-С. 8.16.

5.Кесь А.С. Антропогенное воздействие на формирование рельефа аллювиально-дельтовых равнин Амударьи //Культура и искусство древнего Хорезма-М.:Наука, 1981-С. 283.

6.Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья-М.:Наука. 1969-С. 94-145.

7.Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма-М.:Наука, 1968. Вып-8-143 с.

8.Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья-М.:Наука, 1981-С.78-89.

9.Виноградова Е.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге //Приаралье в древности и средневековье М-ИВЛ РАН, Наука, 1978-С. 74-77.